

## WEB-DIZAYN FANINI O'QITISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.

G.B. Xudoyberdiyeva

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti

Matematika-informatika ta'lif yo'naliishi 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12657338>

**Annotatsiya.** Raqamlı texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda internetda inson faoliyatining barcha sohalariga oid va unga ta'sir qiladigan katta miqdordagi ma'lumotlarga duch kelamiz. Bu internet foydalanuvchilari uchun internet manbalaridan qulay foydalanishni ta'minlay oladigan web-dizayn bo'yicha mutaxassislariga bo'lgan talabning keskin oshishiga olib keldi. Mazkur soha bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning sifati va qiyinchiliklari hozirgi kundagi dolzARB masalalardan biridir. Shu munosabat bilan ushbu maqolada web-dizayn fanini o'qitish jarayoni tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar.** Elektron ta'lif resurslar, global axborot, video, web-saytlar, Web-tehnologiya, web-sahifa, web-dizayn.

## TEACHING WEB DESIGN AS A PEDAGOGICAL PROBLEM.

**Abstract.** In the rapidly developing world of digital technologies, we come across a large amount of information on the Internet that affects all areas of human activity. This has led to a sharp increase in the demand for web design professionals who can provide easy access to internet resources for internet users. The quality and difficulties of training specialists in this field is one of the current issues. In this regard, this article analyzed the process of teaching web design.

**Key words:** E-learning resources, global information, video, websites, Web technology, web page, web design.

## ОБУЧЕНИЕ ВЕБ-ДИЗАЙНУ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА.

**Аннотация.** В стремительно развивающемся мире цифровых технологий мы сталкиваемся с огромным объемом информации в сети Интернет, которая затрагивает все сферы человеческой деятельности. Это привело к резкому увеличению спроса на профессионалов веб-дизайна, которые могут обеспечить легкий доступ к интернет-ресурсам для интернет-пользователей. Качество и сложность подготовки специалистов в этой области является одним из актуальных вопросов. В связи с этим в данной статье проанализирован процесс обучения веб-дизайну.

**Ключевые слова:** Ресурсы электронного обучения, глобальная информация, видео, веб-сайты, веб-технологии, веб-страницы, веб-дизайн.

**KIRISH.** Hozirgi kunda ayrim yo'naliish mutaxassislariga ularning informatsion intelluktual faolligi va zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalariga yuqori talablar qo'yilmoqda.

Tashkilot va muassasalarning samarali ishlashi mutaxassislar, jamoaning muvaffaqiyatlari tadqiqotchilari va foydalanuvchilarining zamonaviy kompyuter va web-tehnologiya uslublari va uskunaviy vositalarini qanday darajada o'zlashtirib olganliklariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Shuning uchun ham hozirgi kunda ko'pchilik mutaxassislar raqamlı texnologiyalarning yangi va samarali yo'naliishlarini o'rganish, hususan web-tehnologiya va global internet tarmog'ining ishlash asoslari, web-sahifa va saytlarni yaratish va rivojlantirishni, ularni internetga reklama qilishning ahamiyati beqiyos katta ekanligi to'g'risida tasavvurga egalar. Hozirgi paytda

harqanday tashkilot qaysi sohada ish olib bormasin, dunyo bozoriga chiqish uchun o'z faoliyatida web-texnologiyalardan foydalanish zarurligiga katta e'tibor qaratmoqda. Internet tarmog'iga ma'lumotnijoylashtirish uchun uning ko'rinishi qulay bo'lishi, ya'ni web-dizaynga katta e'tibor berish zarur. Mohirlik bilan yaratilgan sayt, qoida bo'yicha informatsion butun bo'lishi va joylashtirilgan axborotning ahamiyatiga qarab, ma'lum standartga ega bo'lishi kerak. [1; 5-b]

**Adabiyotlar tahlili:** Web-dizaynni o'qitishini pedagogik muammo sifatida o'rganish uchun bir nechta muhim adabiyotlar mavjud. Bu adabiyotlar olimlar va tadqiqotchilar tomonidan tavsiya qilingan, web-dizaynni o'qitish jarayonida muhim masalalarni o'rganishga yordam beradi. Quyidagi kitoblar va maqolalar bu mavzuda yaxshi yo'naliш beradi: "Teaching Web Design" by Steven MacLeod, bu kitob web-dizaynni o'qitish metodikalarini, ta'lif texnologiyalarini va o'qitish jarayonini ko'rib chiqadi. O'qituvchilar uchun praktik qo'llanmalar va tavsiyalar ham mavjud. Bundan tashqari "Web Design Education: Teaching the Foundations of Good Design" by Ben Hunt, bu kitob web-dizaynni asoslarini o'qitish, dizayn prinsiplarini, interaktivlikni va iste'molchilar bilan bog'liq muammolarni qanday hal qilish haqida ma'lumot beradi. Ya'na bir ajoyib kitobni misol sifatida keltirishmiz mumkin. "Design for Web Developers: Colour and Layout for the Artistically Overwhelmed" by Brent Galloway, bu kitob web-dizaynni dizayn prinsiplarini o'rganish, ranglar va tuzilish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bu asosiy malaka o'rganish uchun muhim bo'lishi mumkin. Ularning kitoblari va bloglari o'quvchilar va o'qituvchilar uchun foydali manbalar hisoblanadi. Ammo bu tadqiqotlarda web-dizayn fanini o'qitish pedagogik muammo sifatida o'rganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Web-dizayn - ta'lif sohasida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va kasbiy vazifalarni mustaqil hal etishga va o'z vaqtini to'g'ri tashkil etishga qodir bo'lgan malakali mutaxassisni shakllantirishga qaratilgan fandir. Ushbu maqsadlar olyi ta'lif muassasalarida kasbiy yo'naliшdagи fanlar doirasida nazariy o'quv kurslarida, amaliy ko'nikmalarni qayta ishlash va mustahkamlash bo'yicha laboratoriya ishlarini bajarish, shuningdek kurs va diplom ishlarini bajarish jarayonida erishiladi. Web-dizaynerlarni tayyorlash masalasi turli olimlar va bevosita amaliyotchilar tomonidan faol ravishda o'rganilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda mamlakatimiz olyi o'quv yurtlarida o'qitiladigan web-dizayn fani bo'yicha bir qancha olimlarning izlanishlari, tadqiqotlari natijalari aksettirilgan adabiyotlarni o'rganib chiqib web-texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanayotganligini hisobga olgan holda web-dizayn bo'yicha zamonaviy mutaxassis tayyorlash uchun o'zbek tilidagi yangi adabiyotlarning kamligi, shunga qaramay ko'plab talabalar ushbu soha bo'yicha zamonaviy texnologiyalar va bilimlarga asoslangan ta'lif olish fikrini bildirganlar. Global Internet tarmog'inining jadal rivojlanishi natijasida Web dizayn fani eng jadal rivojlanayotgan axborot texnologiyalaridan biri bo'lib, u grafik axborot muhitini yaratishga, yoki boshqacha aytganda, Web-saytlar va internet-sahifalarini yaratishga qaratilgan yangi fan paydo bo'ldi. Bo'lajak web-dizayn bo'yicha mutaxassislarini kasbga yo'naltirish va tayyorlash, web-sayt ishlab chiqishning umumiyl tamoyillari, dizayn yechimlari, Web-dizaynni grafik dizayn bilan farqlari va o'xshashligi bilan bog'liq ko'plab savollarning ushbu soha mutaxassislarini doirasida muntazam ravishda yechimlari ma'lum ma'noda topilib kelmoqda. Web-dizayn fani keng jamoatchilik orasida katta qiziqish uyg'otmoqda. Mazkur soha bo'yicha juda ko'plab davra suhbatlari, konferentsiyalari tashkil etilmoqda, reklama uyushmalari tashkil etilmoqda. [2 §; 5; 59]

Elektron ta'lim resurslarini ta'lim tizimidagi o'rni Axborot jamiyatiga o'tish zaruriyati jahon iqtisodiyotida yangi texnologik tartib shakllanishi va ustuvorligi, axborot resurslarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy resurslariga o'tishi, jamiyatni axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan talabini qondirish, ijtimoiy ishlab chiqish tizimida axborot kommunikatsion infrastruktura ahamiyatini oshishi, xalqaro axborot almashinuvarlар asosida maorif, ilmiy-texnik va madaniy sohalaming takomillashuvi, «global axborot afzalliklarini» teng huquq asosida ishlatish bilan shartlanadi. Oxirgi yillarda elektron ta'limning an'anaviy ta'limga qaraganda afzallik jihatlari ko'proq aniqlanmoqda. So'nggi vaqtarda ta'lim oluvchilar va o'qituvchilar an'anaviy ta'limning ba'zi turlariga qaraganda onlayn ta'limning afzalliklari ko'proq degan xulosaga kelmoqdalar. Sababi, ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan raqamli o'qitish platformalari ko'paymoqda, bunda an'anaviy va onlayn ta'limning eng yaxshi tomonlari birlashtirilib aralash ta'lim tizimi shakllantirilmoclda. Aralash ta'lim narxining pastligi, moslashuvchanligi, bepulligi, bundan tashqari ta'lim jarayonida murakkab texnologiyalami qo'llash afzailigi ushbu alternativa uchun sabab bo'ladi. Bu tendensiyaga bo'lgan qiziqish ta'lim jarayonida talabalarga ta'sir etadi va ta'lim sifatini oshiradi. Ko'pgina tadqiqotlar onlayn ta'lim talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga sabab bo'lishini ko'rsatgan, ya'ni talabalaming mustaqil ta'lim olishiga, individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda o'quv jarayoniga moslashtirish qobiliyatini shakllantirishga asos bo'ladi. Elektron ta'limda rivojlanishini talabalaming raqamli dunyoda o'zini erkin tutishi, ya'ni kerakli ma'lumotlami yuklab olishi, tahlil qilishi, onlayn kontentlardan erkin foydalana olish qobiliyatida ko'rishimiz mumkin. Vaqt o'tgan sayin ushbu tendensiyaga texnologiyalami qo'llash asosida an'anaviy ta'limning hohlagan turi, metodi, ta'lim berish usulini kiritishimiz mumkin. 9 2016 yil Campus Technology o'qituvchilar o'rtasida Texnologiyalami qo'llab dars o'tish mavzusida so'rovnama o'tkazilib, bunda 71% o'qituvchilar an'anaviy ta'lim bilan birga onlayn manbalarden foydalanishini aytganlar. Elektron ta'lim afzalliklarini an'anaviy ta'lim ijtimoiy texnologilarini va media resurslarini birgalikda qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin. Maqsad esa talabalarning demografik guruh va ijtimoiylashuvidan kelib chiqqan holda ulaming ehtiyoj ianni hisobga olib ta'lim modelim ishlab chiqish. Tendensiyani yanada rivojlantirish uchun oliy ta'lim muassasalarida talabalar ta'l mi uchun shartsh aroitlar yaratilishi kerak. Ko'pgina o'qituvchihi o'quv jarayonini internet bilan boglasalarda, kuzatuvchilaming fikricha aralash ta'limda internetting ham roli bor, bunda talaba individual yondashuvga ega bo'ladi. Londondagi Imper tibbiyot kolleji talabalar an'anaviy va onlayn ta'limni birgalikdagi qo'llanilishiga asoslangan ikkita tajribada ishtirok etdilar. Talabalar video ma'ruzani ko'rib, vazifalami bajarish imkoniyatini mavjudligini yuqori baholadilar.

Talabalar ushbu model tushunarli animatsiyalar bilan yaxshi tizimlashtirilgani va o'z-o'zini baholashda interaktiv savollarga egaligini aytib o'tishddi. [3; 10-b]

Barcha oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini yuqori saviyada tashkil qilish uchun davlat taiim standartlari hamda xalqaro taiim standartlariga toiiq javob bera oladigan o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash masalasi dolzarb muammo hisoblanadi. Bugungi kunda o'quv jarayonida foydalanish uchiin tavsiya etilgan o'quv hamda elektron o'quv adabiyotlarning tahlili o'z yechimini kutayotgan masalalardan biriga aylanmoqda. [3; 35-b]

Hozirgi vaqtida har bir tashkilot yoki har bir shaxs, qayerda ishlashidan qat'iy nazar, internetda o'z joyini yaratish zarurligini tushunmoqda. Chunki bu usul natijasida butun dunyoga

o'zi to'g'risida, o'zining ish faoliyati to'g'risida gapirish va internetning bepoyon resurslaridan o'z maqsadi yo'lida foydalanish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Axborotni Internetda joylash uchun, yuqorida aytilganidek, uni ekranda aks ettirish uchun qulay bo'lgan ko'rinishda, ya'ni Web-sahifa ko'rinishida taqdim etish zarur, chunki bu sahifada joylashtirishni xohlagan foydalanuvchi axboroti har tomonlama bo'lishi va u ko'p hollarda Web-saytda joylashishi mumkin. Aql bilan yaratilgan sayt, qoida bo'yicha, axborot yagona bus-butun hisoblanadi va joylanajak axborot mohiyatiga qarab alohida kriteriya va standartlarga ega bo'ladi, ko'plab tashkilot va muassasalar, xususiy foydalanuvchilar uchun o'zlarining tashkilot va shaxsiy ish faoliyatlarida Web-texnologiyani va uning elementlarini tatbiq etish bo'yicha ko'plab har xil muammolarga duch kelinadi. Bu internet serverlarida joylashguncha, nashr qilinguncha web-texnologiya va dizayn asoslaridan yuqori va chuqur bilim talab qiluvchi, ko'pqirrali va professional-intellektual ishdir.

Bu muammolar zamonaviy Web-texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar etarlicha bo'lgandagina echiladi. Shuning uchun web-sahifa yaratish va uni o'rganish jarayoni, shu berilgan yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kun uchun juda muhim va faol hisoblanadi.

Bu mutaxassislik kuchli va kelajagi porloq professiya, u hozir ham, keljakda ham hamisha, o'z o'rniغا ega bo'ladi. Boshqa tomondan Web-saytlarni yaratish va o'rganish muammosining faolligi va muhimligini quyidagi sabablar bilan asoslash mumkin: -taqdim qilinayotgan internet servis xizmatlari muhitini ko'p miqdorda kengayishi va ulardan foydalanishning osonligi bilan; -tarmoq Web-texnologiya, ularning resurslari va imkoniyatlarini hamma joyda tarqatish bilan; -istagan darajali axborotlarga bo'layotgan talablarning o'sib borishi bilan; -tashkilot va xususiy shaxslarning o'zlari va o'z ish faoliyatlari to'g'risidagi axborotlarni internetda joylash uchun intilishlarning o'sishi bilan; -tarmoq ma'lumotlar bazasidagi global mashtabdagi har xil maqsaddagi axborotlarga e'tibor qaratish bilan; -har mamlakat, millat va fan odamlarining o'zaro muloqot va tushunishlarga bo'lgan intilishi bilan; -Web-texnologiyaning barcha yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislarning etishmasligi bilan. Shunday qilib, internet xizmatlaridan ikkita xizmat spektriga alohida e'tibor berish kerak, ya'ni tarmoq abonentlararo axborot almashuvi va axborot qidirish va tarmoq berilganlar bazasidan foydalanish. Xizmat taraqqiyotining samarasini to'g'risida gap ketganda barchamiz har xil Internet xizmatlaridan potensial foydalanuvchiga aylanib qolishimizni ta'kidlash zarur. Internetda axborotlarni ifodalash taqdim qilinadigan axborot xiliga bog'liq bo'ladi, ya'ni shaxsiy yoki unga katta bo'limgan firma va tashkilotlar; davlat tasarrufidagi Web-saytlar; ta'lim va moliya strukturalari; ilmiy markaz va kutubxonalar; xayr-ehson uyushmalari; tijorat uyushma saytlari; kontent-saytlar axborotlarini taqdim etish. Ayniqsa, saytning birinchi sahifa jihoziga alohida e'tibor qaratish kerak. Web-saytni yaratish va uni o'rganish muammolarining ko'plab sabablariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: internet xizmatining kengligi; xizmatdan foydalanishning oddiyligi; Web-texnologiyalarini tarqatishdagi qulaylik; real vaqt mashtabida axborotlarga bo'lgan talablar; tashkilot va xususiy shaxslarning o'zlari to'g'risidagi axborotlarni internetga joylashtirishga intilishi; tarmoq ma'lumotlar bazasida global mashstabidagi ixtiyoriy ma'lumotlarni to'plash; Web-texnologiya bo'yicha mutaxassislarning etishmasligi. Hozirda Dasturlash tillari shiddat bilan rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, barcha sohalarni ortda qoldirmoqda. Dasturlash tillarini o'rganuvchilar soni tobora ortib ular bilish darajasiga ko'ra 3 turga bo'linadi: junior, middle va senior dasturchilarga bo'linadi. Hozirda web dasturlash tillari haqida qisqacha ma'lumotlar keltirib o'tamiz.

Web dasturlash tillari (Веб дастурлаш тиллари) Internet saytlari yoki umuman olganda internet tarmog'i uchun mo'ljallangan loyihalarda qanday dasturlash tillari ishlatalidi?

Veb dasturlash 2 turdag'i tillarga bo'linadi.

1. Browser dasturlash tillari (JavaScript, VB script)
2. Server dasturlash tillari (PHP, ASP, Python va hokazo) [4; 41-b]

Hozirgi kunda veb-sayingiz to'liq javob berishini ta'minlash juda muhimdir. Javob beruvchi veb-sayt bo'lmasa, siz mobil qurilmalar orqali sayingizga kiradigan ko'plab tashrif buyuruvchilarni ajratib turasiz. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, faqat 2023 yilning ikkinchi choragida global sayt trafigining 62% dan ortig'i mobil qurilmalar (planshetlarni hisobga olmaganda) hisobiga to'g'ri kelgan.

Texnologiya savodxonligi o'rganish jarayonida texnologik ko'nikmalar va vositalardan foydalanish qobiliyatini anglatadi (Ejikeme va Okpala, 2017). Amerika Qo'shma Shtatlari Ta'lim Departamenti (1996, p.7) texnologiya savodxonligini "kompyuter ko'nikmalari va o'rganish, samaradorlik va ishlashni yaxshilash uchun kompyuter va boshqa texnologiyalardan foydalanish qobiliyati" deb ta'riflaydi. Thammasaeng, Pupat and Phetchaboon (2016) texnologik jihatdan savodli odamni shunday ta'riflaydi: kompyuterlar, aloqa vositalari va ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanish va texnologik ilovalar yordamida ma'lumotlarni aniqlash, kirish, boshqarish, baholash, integratsiyalash, yaratish va taqdim etish qobiliyati. Biroq, "texnologiya savodxonligi" atamasi kompyuterlar kabi qurilmalar bilan cheklanib qolmay, balki "ilmiy bilimlarni amaliy maqsadlarda qo'llash" (Ejikeme va Okpala, 2017, p.1164). Texnologiyalar savodxonligi raqamli savodxonlik, onlayn ta'lim va elektron ta'lim bilan ham bog'liq (Hassan va Mansor, 2009).

Onlayn va elektron ta'limga global silihish kuzatilmoqda, buni sinfdagi tajribalar, darsliklarni o'rganish, CD-ROM va an'anaviy kompyuterga asoslangan treninglar kabi an'anaviy ta'lim usullarini takomillashtirish yoki almashtirish orqali kuzatish mumkin (Kalvo va Villarreal, 2018; Skhephe, Kaga va Boadzo, 2020). An'anaviy sinf tajribasi va to'g'ridan-to'g'ri o'qitish doimiy ravishda onlayn ta'lim bilan almashtiriladi. "Birlashtirilgan va gibrid o'rganish" deb ham ataladigan o'qitish va o'qitishda texnologiya integratsiyasi elektron ta'lim deb ham ataladigan onlayn ta'limga o'tishni ham ta'kidlaydi [4; 629].

Veb-sayt dizayni pedagogikasidan foydalanish o'qituvchilarga o'zlarining proksimal rivojlanish zonalariga erishishga yordam beradi. Turli tadqiqotchilar (ya'ni, Iszatt-Uayt va Kempter, 2013; Moe va Polin, 2016; Vygotskiy, 1978) bilimlar birqalikda tuzilgan va odamlar guruhda ishlash jarayonida boshqalardan o'rganadi degan fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Shunday qilib, ushbu tadqiqotda o'qituvchilar bir-birlaridan o'rganish va kurashayotgan talabalarni qo'llab-quvvatlash uchun tengdoshlari bilan birlashtirilgan. Ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, topshiriq o'qituvchilarga qiyinchilik tug'dirgan, chunki talabalarning 85,7 foizi Google saytlari yoki veb-saytlar dizayni haqida oldindan ma'lumotga ega emasliklarini tushuntirishgan. Keyin ular topshiriqni qanchalik qiyin deb topganliklarini 1 dan 5 gacha (umuman emas) shkala bo'yicha ko'rsatishlari so'ralgan. Ularning javoblari shuni ko'rsatdiki, ikki yil davomida 172 nafar (80,3%) tayyorgarlik bosqichidagi o'qituvchilar topshiriqni qiyin deb topdilar. [5; 638]

## XULOSA

Web-dizayn fanini o'qitish pedagogik muammo sifatida muhim masala, chunki bu soha tezroq rivojlanayotgan va o'rganish jarayonida qiziqish yaratadigan soha. Web-dizayn sohasi tez

rivojlanib, yangiliklar va texnologiyalar o‘zgarib turadi. O‘qitish jarayonida bu yangiliklarni ta’limda integratsiyalash, o‘quvchilarning texnologiyalarni qabul qilish va ularni qo‘llashiga imkoniyat yaratish muhimdir. O‘quvchilar web-dizayning turli aspektlariga qiziqish ko‘rsatishadi. Pedagogik usullar o‘quvchilarning individual talablari va qobiliyatları asosida belgilanishi kerak, masko‘r maqolada bu muammoga e’tibor qaratilgan.

#### **REFERENCES**

1. Critical Design Factors of Developing a High-quality Educational website: Perspectives of Pre-service Teachers 2014
2. Creating Effective Websites for University Teaching An educational framework Kerri-Lee Harris and Deborah Jones September 2007
3. "Telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish qoidalarini tasdiqlash to‘g’risida" O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri buyrug’i. 2020-yil, 25-iyun, 3275-son
4. A Complete Web Development Guide 2021
5. Xolboy IBRAIMOV ILMIY-USLUBIY JURNAL Toshkent - 2022